MAVZU:KONSTANTIN DEMITRIYEVICH USHINSKIYNING MAKTAB, MAORIF HAMDA PEDAGOGIK FIKIRLARI

Bahritdinova Durdona Zayniddin qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Unversiteti Namangan

filialining boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Konstantin Dmitrievich Ushinskiyning hayot yo'li, pedagogik faoliyati hamda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi batafsil tahlil qilinadi. Maqolada uning bolalik davri, ta'lim olgan yillari va pedagog sifatida shakillanish bosqichlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Ushinskiyning ta'lim-tarbiya jarayoniga oid nazariy qarashlari, xususan, o'qitishda ona tilining ahamiyati, ta'limning xalqchilligi, tarbiyaning milliy va madaniy qadiryatlar bilan uzviy bog'liqligi kabi tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Bundan tashqari, maqolada pedagog olimning didaktik qarashlari, o'quv jarayonini tashkil etishdagi metodik yondashuvlari hamda o'quvchi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari tahlil etiladi. Ushinskiyning pedagogik merosi zamonaviy ta'lim tizimi bilan qiyosiy o'rganilib, uning g'oyalariningbugungi kundagi dolzarbligi va amaliyahamiyati ochib beriladi. Maqola davomida olimning

asosiy asarlari va ularning pedagogika fanidagi o'rni ham alohida ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, o'qituvchilar hamda ilmiy tadqiqotchilar ucun muhim manba bo'lib xizmat qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar:

Konstantin Dmitirevich Ushinskiy, pedagogika, ta'lim tizimi, tarbiya, ona tili, didaktika, o'qitish metodikasi, shaxs rivoji, xalq pedagogikasi, ilmiy meros

KIRISH

Pedagogika insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan fanlardan biridir.Insoniyat tarixida ta'lim va tarbiya masalasi har doim dolzarb ahamiyat kasb etgan, chunki har bir jamiyatning kelajagi, uning ma'naviy, axloqiy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodiga bog'liqdir. Shu sababli pedagogik tafakkur taraqqiyoti turli davrlarda yashab ijod qilgan mutafakkir va olimlarning ilmiy qarashlari asosida shakillanib brogan.

XIX asr pedagogika tarixida ilmiy asoslangan ta'lim nazaryasini ishlab chiqishga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri – Konstantin Demitriyevich Ushinskiy hisoblanadi. U pedagogikani faqat amaliy tajribalar yig'indisi emas, balki aniq qonuniyatlarga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida talqin etgan. Ushinskiy pedagogik jarayonni psixalogiya, fizalogiya va falsafa bilan bog'liq holdao'rganish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa o'sha davr

pedagogikasida yangicha yondashuv sifatida e’tirof etilgan.Ushinskiy ta’lim jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, o’qitishni ongli va izchil tashkil etish, ko’rgazmalilik tamoyilidan foydalanish kabi didaktik qoidalarni tizimlashtiradi. Ayniqsa, u ona tilining shaxs tafakkurini rivolantirishdagi o’rnini chuqur asoslab bergan. Olimning fikiricha, ta’lim jarayoni milliy zamin va xalq ruhiga tayanishi lozim, chunki til va madaniyat inson shaxsining shakillanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tarbiya masalasida Ushinskiy axloqiy tarbiyani ustuvor deb bilgan. U shaxsni har tomonlama kamol toptirish – aqliy, jismoniy va mehant tarbiyasini uyg’un holda olib borish orqali amalga oshirilishini ta’kidlagan. Uning ilmiy qarashlari keyingi davr pedagogika rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatgan hamda ko’plab mamlakatlar ta’lim tizimida qo’llanilgan.

1.Olimning hayot yo’li haqida

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, “Rus o’qituvchilarning o’qituvchisi” Konstantin Demitriyevich Ushinskiy 1824-yilning 19-fevralida Rossiya imperyasining Tula shahrida harbiy xizmatchi oilasida tug’ilgan.Bolalik yillari asosan Novogord-Severskiy (hozirgi Ukraina hududi) atrofida o’tgan. Otasi harbiy bo’lgani uchun u intizomli muhitda ulg’aygan. Onasi esa uning ta’lim olishiga e’tibor bergan.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilada tarbiyalanib, savod chiqaradi. So’ngra Novgorod-Seversk gimnaziyasiga o’qishga kirib, uni 1840- yilda

muvaffaqiyatli tamomlaydi. O'sha yili Moskva dorilfununining yuridik fakultetiga o'qishga kiradi va o'sha davrning mashhur prafessori Redikinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim oladi.

Ushinskiy 22 yoshida Yaroslav litseyiga kameral (yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi sifatida xizmatga kiradi va ish boshlaydi. U uch yilik daslabki pedagogik faoliyatida katta iste'dod egasi ekanini namoyish eta oladi. Shuningdek, Ushinskiy zo'r bilim berishga harakat qilar edi, ularda ilm-fanga nisbatan qiziqish uyg'atdi, eng muhimi, o'z xalqi ona yurtini jondan sevish, ardoqlash hamda vijdonan halol mehnat qilishga da'vat etadi. Bu yosh va iste'dodli professorning mazmunli ma'ruzalarini litsey talabalari maroq bilan tinglab, chuqur va mustahkam saboq olar edilar.

Keyinchalik Ushinskiy Sankt-Peterburgda pedagogic faolyatini davom ettiradi. U Smolniy qizlar institutida ishlaydi va ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ko'plab takliflar beradi.

Ushinskiy ta'limimning asosiy tamyillaridan biri sifatida ona tilida o'qitish, bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va tarbiyani xalq madaniyati bilan bog'lash kerakligini ta'kidlagan.

Hayotining oxirgi yillarida sog'ligi yomomhlashgani sababli davolanish uchun Yevropaga boradi. Shunga qaramay, u ilmiy faoliyatini davom ettiradi.

Konstantin Demitriyevich Ushinskiy 1870- yil 22-dekabr 47 yoshida

Odessa shahrida vafot etgan.

2.Olimning ijodi haqida

Konstantin Demitriyevich Ushinskiyning ijodi nioyatda serqirra va mazmunan boy bo'lib, u rus klassik pedagogi, Rossiyada ilmiy pedagogika va xalq maktabi asoschisi. Ushinskiy pedagogic sistemasining negizi ta'lim va o'qitish tizimida demokratlashtirishnitalab qilishdan iborat bo'lgan. U birinchi bo'lib, pedagogika tarbiyaning ilmiy nazariyasi, degan fikirni ilgari surgan va buni isbot etgan. Ushinskiy pedagogika nazaryasining asosini tarbiyaning xalqchillik g'oyasi – tarixiy jarayonda mehnatkash xalqning yaratuvchilik kuchini e'tirof etish tashkil qilgan. Ushinskiy pedagogikani keng ma'noda bir fan, tor ma'noda tarbiya san'ati deb hisoblagan. Ushinskiy tarbiyani shaxsni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy shakillantirishga qaratilgan yaxlit jarayon deb bilgan va bunda axloqiy tarbiya asosiy o'rinni egallashi lozim deb hisoblagan. Ushinskiy yaxlit didaktik tizimni ishlab chiqqan. Unda ta'lim mazmunini tanlash hamda uni bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish masalalari ochib berilgan. Ushinskiy o'qitishning psixofizik tabiatini tadbiq etdi, diqqat, qiziqish, xotira, xayol, hissiyot, tafakkur kabi psixologik mexanizmlarni tahlil qildi. O'zining "Inson tarbiya predmeti sifatida" degan asarida psixologiyani tajriba ma'lumotlariga asoslanib tuzishga harakat qildi. U bolalar psixologiyasi bilan talim-tarbiya psixologiyasini ishlab chiqqan.

3.Qanday asarlar, adabiyotlar yaratgan

Konstantin Demitriyevich Ushinskiy 1857- yildan boshlab “Tarbiya jurnali” (“*Журнал для воспитания*”)da, so’ngra “*Xalq maorifi jurnali*” da juda ko’p sermazmun maqolalar e’lon qildi. 1860-yili u “*Xalq maorifi jurnali*”ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yili o’zining “Bolalar dunyosi” (“*Детский мир*”) nomli o’qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o’sha yilning o’zidayoq ikki marta chop etildi. 1861-yili uning I – II o’quv -yillari uchun “Ona tili” darsligi nashr etiladi va unga “*Muallimlar uchun qo’llanma*” degan metodik asari ilova qilinadi. 1870-yili esa III o’quv -yili uchun ham “Ona tili” darsligi bosilib chiqiladi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan “*Inson – tarbiya predmeti sifatida*” nomli asari ayrim jildlarga bo’linib nashr qilina boshladi. 1867-yili bu asarning I jildi, 1869-yil II jildi bosilib chiqdi. Ushinskiy bu kitobning hamma jildlarini qisqartirib ingiliz tiliga tarjima qilish maqsadida uchinchi jild ustida zo’r g’ayrat bilan ishlay boshladi. Afsuski, bu ishni tamomlash unga nasib bo’lmadi.

4.Olimning yozgan asarlarining nomlari

K.D.Ushinskiyning ko’plab mashhur asar, bolalar uchun didaktik hikoyalar, maqolalar va pedagogika tarixida muhim ahamiyatga ega bo’lgan asarlari quydagilardan iborat:

“Bolalar dunyosi”(1861) – Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun kuzatuvchanlik, bilimni rivijlantirish, tabiat va jamiat haqida o’quv kitob.

“Ona tili”(1864) – Rus maktablarida o’qish, yozish, analitik-sintetik fonetik metodni qo’llagan. Bu darslik juda mashhur bo’lib, inqilobgacha 187 martadan ortiq nashr qilingan.

“Inson – tarbiya predmeti sifatida”(1867-1869) – Ushinskiyning eng mashhur va fundamental asar. U 3 jilddan iborat bo’lib, unda pedagogika inson tabiatini o’rganishga asoslanishi kerakligi ta’kidlanadi. Asarda psixologiya, fizalogiya, falsafa va tarix fanlari bilan pedagogikaning bog’liqligi tushintiriladi.

“Yevropa bo’ylab pedagogik sayohat” – Ushinskiy Yevropa davlataridagi maktablarni o’rganib yozgan ilmiy asar. Unda turli mamalakatlarning ta’lim tizimi taqqoslab tahlil qilingan. Bu asar pedagogika fanining rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan.

Pedagogika va ta’lim haqida yozgan maqolalari quydagilar:

- Tarbiya haqida uch maqola.
- Xalq maktabi haqida.
- O’qituvchi haqida fikrlar.
- Mehnatning tarbiyaviy ahamiyati/
- Milliy tarbiya g’oyasi.

Bu maqolalarda asosan milliy ta’lim g’oyasi, Bolani shaxs sifatida tarbiyalash, o’qituvchi ro’li, mehnat tarbiyasi kabi masalalar tahlil qilingan.

Bolalar uchun didaktik hikoyalari quydagilardan iborat:

- Shamol va Quyosh
- Ikki Plug
- Ko’r ot
- Tulki va Echki
- Xo’roz va It
- Ikki Uloq
- To’rt tilak

Bu hikoyalar orqali bolalarga axloqiy tarbiyaviy va hayotiy saboq bergan.

Ushbu asarlar Ushinskiyning pedagogic merosining asosini tashkil etadi va bugungi kunda ham o’z ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan.

5.Olim ilm yo’lida qilgan tadqiqotlari davrida yaratgan ixtirolari

Konstantin Demitriyevich Ushinskiy texnik ma’nodagi mexanik ixtirolar yaratmagan bo’lsa-da, u pedagogika fanida tub burilish yasagan ilmiy-metidik “ixtirolar” muallifi hisoblanadi. Uning ixtirolari asosan pedagogika fanida nazariy va metodik yangiliklar (innovatsiyalar) yaratgan.Ushinskiy o’qitishning yaxlit didaktik tizimini ishlab chiqqan. U didaktik o’qitish nazaryasining psixologik asoslarini o’sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi.

Ushinskiy ta’lim-tarbiya ishida o’quvchilarning faolligiga va tashabbuskorligiga tayanish kerakligini uqtirar ekan, ta’lim bolalarga

mukammal bilim bermog'I va malakalar hosil qilish uchun aniq-ravshan, shu bilan birga, tartibli va izchil bo'lmog'I lozim, deb ta'kidlagan.

Ushinskiy ta'lim jarayonidagi ko'rgazmalilik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosiga bo'lishini ta'kidalagan.

Usinskiyning pedagogic g'oyalari bugingi zamonaviy pedagogika rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Uning qarashlari boshlang'ich ta'lim metodikasi, milliy ta'lim va bolalar tarbiyasida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

6.Olimning ilgari surgan g'oyasi boshqa olimlar g'oyalaridan farqi

Quydagi jadvalda Konstantin Demitriyevich Ushinskiy g'oyalari va undan oldingi yoki zamondosh olimlar qarashlari o'rtasidagi asosiy farqlar ko'rsatilgan:

Taqqoslash mezoni Ushinskiy qarashlari Makarenko qarashlari

Tarbiya asoslari: Tarbiya inson tabiatini,Tarbiya jamoa muhitida Psixologiyasini o'rga- va ijtimoiy faoliyat orqali nishga asoslanishi kerak amalga oshadi

Ta'limdagi asosiy g'oya: Milliy ta'lim va ona Jamoa tarbiyasi va tilining ahamiyati ijtimoiy mas'uliyat

Tarbiya usuli: Individual xususiyat-Jamoa orqali shaxsnilarni hisobga olish tarbiyalash

Mehnatga qarash: Mehnat shaxsni Mehnat jamoani birlash-rivojlantiruvchi omil tiruvchi kuch

Ta’lim sohasi: Asosan boshlang’ich Asosan yetim bolalar va Ta’lim va umumiy qiyin tarbiyalanuvchi pedagogika yoshlar bilan ishlash

O’qituvchi ro’li: O’qituvchi bilim Tarbiyachi jamoa rahbari beruvchi va tarbiyachi va tashkilotchisi K.D.Ushinskiy pedagogikasi shaxs rivoji va milliy ta’limga asoslangan bo’lsa, A.S.Makarenko pedagogikasi jamoa tarbiyasi va mehnat orqali tarbiyalash g’oyasiga asoslanadi.

7.Olimning bizgacha yetib kelgan meroslari soni

Konstantin Demitriyevich Ushinskiyning ilmiy va pedagogic merosi nihoyatda boy va qimmatli hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikiriga ko’ra, uning 50 dan ortiq ilmiy ishari, 10 dan ortiq yirik pedagogic asarlari, ko’plab bolalar uchun hikoylari mavjud bo’lib ular kutubxonalar, muzeylar va ilmiy markazlarda saqlanadi hamda pedagogika fanini o’rganishda muhim manba hisoblanadi.

Usheniskiyning asarlari bugungi kunda “Russian State Library” , “Russian National Library” kutubxonalarda asarlarning asl nashrlari va qo’l yozmalari saqlanadi.

Shuningdek, Ushinskiy merosi faqat yoma asarlar bilan cheklanmaydi. Uning pedagogic g’oyalari, ta’lim tamoyillar, metodik qarashlari ham ma’naviy meros

sifatida bugingi avlodaga yetib kelgan. Dunyodagi ko'plab maktab tizimlari aynan uning g'oyalari asosida shakllanganini ko'rish mumkin.

8.Olimning qaysi iboralarini yod olgansiz?

Konstantin Demitriyevich Ushinskiy o'z asarlarida ko'plab hikmatli iboralarni qoldirgan. Quyida uning eng mashhur va mazmunli fikrlaridan ayrimlari keltirilgan:

"Ona tili – Ushinskiyning fikricha – na kitob, na maktab bo'lmagan vaqtda ham xalqni o'qitgan eng yaxshi ustozdir!"

"Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir"

"Eski maktabda intizom nihoyatda g'ayritabiiy asosga yoki mukofotlarva yoki jazolar ulashib beruvchi o'qituvchidan qo'rqish asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkshlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlamachilikka olib keladi"

"Tarbiya inson tabiatini o'rganishga asoslanishi kerak, faqat shunda u samarali bo'ladi"

"Bola ona tilida o'qib, ona tilida fikirlashi kerak, chunki til – tafakkurning asosi."

"Mehnat – shaxsiy fazilatlarni shakillantiruvchi eng kuchli vosita."

Bu iboralar Ushinskiyning ta’limga bo’lgan insonparvar va ilg’or munosabatini yaqqol aks ettiradi. Ushbu fikirlar bugungi pedagoglar uchun ham muhim yo’riqnoma vazifasini bajaradi.

XULOSA

Mazkur ishda jahon pedagogika fanining buyuk namoyandasi – Konstantin Demitriyevich Ushinskiyning hayoti, ilmiy – pedagogic faoliyati, ijodiy merosi va ta’lim sohasiga qo’shgan ulkan hissasi atroflicha o’rganildi. Ushinskiy nafaqat o’z davri uchun , balki bugungi zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo’lgan g’oyalarni ilgari surgan buyuk mutafakkir sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot davomida Ushinskiyning og’ir va murakkab tarixiy sharoitda yashab ijod qilganiga guvoh bo’ldik. Diniy urushlar, siyosiy beqarorlik va muhojirlik sharoitlariga qaramay, u ilm-fan va ta’limdan voz kechmadi. Aksincha, aynan shu sinovli yillarda u pedagogika tarixida o’chmas iz qoldirgan asarlarni yaratdi. Bu holat Ushiniskiyning ilmiga, ta’limga insonyat kelajagiga bo’lgan cheksiz ishonchini nomoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Konstantin Demiyriyevich Ushinskiy pedagogika fanining poydevorini mustahkamlagan, ta’limni insonparvarlikruhida qayta shakillatirgan buyuk olimdir. Uning ilmiy va pedagogik merosi bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan bo’lib zamonaviy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba bo’lib xizmat qilmoqda.

Ushinskiy qarashlarini chuqur o’rganish va amaliyotga tadbiq etish yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxsifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Konstantin Demitriyevich Ushinskiy.- Moskva: Pedagogika. 1868.

2. Konstantin Demitriyevich Ushinskiy. – Sankt-Peturbrurg. 1864.

3.Konstantin Demitriyevich Ushinskiy. – Sankt-Peturbrurg.1861

4.Pedagogika tarixi. – Toshkent: O’qituvci nashriyoti, 2010.

`5.Pedagogika. – Toshkent: Fan nashriyoyi, 2016.

6.Umumiy pedagogika nazaryasi va tarixi. – Toshkent:2018

7.Pedagogika ensiklopediyasi. – Moskva: Pedagogika, 1993.